

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, O.R.Raxmatov Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining mediasavodxonligini rivojlantirish ehtiyojlari va zarurati	8
U.R.Radjapov, K.B.Xakimdjano Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish uslublari.....	12
X.A.Yulbarsova Loyihaviy ta'lim - bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi sifatida	16
Sh.A.Mamajonov Oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalari.....	21
B.Q.Qurbonova Ta'lim jarayonida hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogika – shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy texnologiyalari	25
B.B.Musayev Aholi salomatligini sog'lomlashtiruvchi dasturining umumiy yo'nalishi	31
N.N.Azizov Yuqori malakali kurashchilarning musobaqaoldi texnik-taktik tayyorgarligini boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari	35
O.Q.Xasanova Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida og'zaki xatolar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslari	42
P.A.Xamrokulov, S.G.Go'furov Физическое воспитание в системе дошкольного образования	48
R.N.Nazimov O'qituvchining pedagogik texnikasi	52
X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni	58
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini oshirishda o'yin va multimedia vositalaridan foydalanish metodlari	62
O.M.Erkaboyev Bolalarning harakat potentsialini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maqsadli oshirish metodologiyasi.....	66
X.M.Ismoilova Hozirgi davrda Farg'ona vodiysi oila qadriyatlariga ta'sir etuvchi destruktiv omillar	73
G.B.Karimova O'qitish jarayonida faol va interaktiv ta'limning asosiy usullaridan foydalanish hamda ularni qo'llash shakllari va maqsadlari.....	77
З.Б.Санакуллова Технология выполнения упражнений юными гимнастками с предметами	81
A.M.Nurmuhammedjanov Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	86
O.F.Qambarov Kichik maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirish asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish	93
I.Qirg'izov Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining Forobiy qarashlari asosida kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasi	96
I.I.Tuyichiyeva O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyatlar	100



UO'K 1.101

**HOZIRGI DAVRDA FARG'ONA VODIYSI OILA QADRIYATLARIGA TA'SIR ETUVCHI
DESTRUKTIV OMILLAR****ДЕСТРУКТИВНЫЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СЕМЕЙНЫЕ ЦЕННОСТИ В
ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ****DESTRUCTIVE FACTORS AFFECTING FAMILY VALUES IN THE FERGANA VALLEY
AT PRESENT****Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, O'zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Farg'ona vodiysi, O'zbekistonning demografik, aholi turmush darajasi, oila, nikoh, ajrimlar, onalar o'limi, ayollar o'limi, go'daklar, bolalar o'limi kabi jarayonlardagi muhim mintaqalar hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosiy islohotlar respublikaning, xususan, Farg'ona vodiysining tumush-tarzida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy sohalaridagi siyosiy islohotlarning Farg'ona vodiysi oilalariga ta'siri ijtimoiy-falsafiy tahlil etilgan.

Аннотация

В статье Ферганская долина является важным регионом в демографических процессах Узбекистана, уровне жизни населения, семье, браке, разводах, материнской смертности, женской смертности, младенческой и детской смертности. Политические реформы, проводимые в Узбекистане за годы независимости, приобретают все большее значение в развитии республики, особенно в Ферганской долине. В связи с этим проведен социально-философский анализ влияния на семьи Ферганской долины политических реформ в экономической и социальной сферах, проведенный в Узбекистане.

Abstract

In the article, the Fergana Valley is an important region in the demographic processes of Uzbekistan, the standard of living of the population, family, marriage, divorce, maternal mortality, female mortality, infant and child mortality. The political reforms carried out in Uzbekistan over the years of independence are becoming increasingly important in the development of the republic, especially in the Fergana Valley. In this regard, a socio-philosophical analysis of the impact of political reforms in the economic and social spheres carried out in Uzbekistan on families in the Fergana Valley was carried out.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, oila, nikoh, ajrim, urf-odat, qadriyat, muammo, statistika.**Ключевые слова:** Ферганская долина, семья, брак, расторжение, традиция, ценность, проблема, статистика.**Key words:** Fergana Valley, family, marriage, divorcing, tradition, value, problem, statistics.**KIRISH**

Zamonaviy davrda Farg'ona vodiysida ro'y berayotgan globalashuv jarayonlari mintaqadagi oila qadriyatlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirdi. Statistik ma'lumotlar har yili vodiy aholisining demografik o'sish ko'rsatkichlari balandligini ko'rsatadi. Shu bilan birga mintaqalar oilalariga ta'sir etuvchi bir qator destruktiv omillar ham yuzaga kelmoqda.

Globalashuv jarayonlarida O'zbekistonda, hususan, Farg'ona vodiysida ro'y bergan o'zgarishlar aholi turmush tarzi va demografik jarayonlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekistonning boshqa xududlariga nisbatan ham ushbu jarayonlarda ko'proq namoyon bo'ldi, ya'ni aholi sonining ortishi, nikohlar, oilalar va tug'ilishning ko'payishi kuzatildi. Shu bilan birga mintaqalar oilalarida erta nikoh, onalar o'limi, go'daklar o'limi, bolalar o'limi kabi holatlar ham yuzaga keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda aholi turmush darajasini yaxshilash, hususan Farg'ona vodiysida inson kamoloti borasida olib borilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Farg'ona vodiysidagi chegaralar bo'linishi bilan bog'liq vaziyatlar, mintaqaning o'ziga

xos xususiyatlari, iqlimi, aholisi turmush-tarzi kabi masalalar ko'plab tadqiqotchilar va siyosatchilarni qiziqitirib kelgan.

Xalqaro CGIAR (Oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash uchun integratsiyalashgan va barqaror qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimlari) tashkilotining ma'lumot berishicha butun O'rta Osiyoda aholi zichligi har bir kvadrat kilometrga 40,8 nafarni tashkil etgan bo'lsa, Farg'ona vodiysida bu ko'rsatkich 1 kvadrat kilometrga 1600 nafarni tashkil etadi. Shuningdek u Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan mintaqalardan biri bo'lib, so'ngi 10 yilda aholi soni 32 foizga oshganini ta'kidlaydi.

Integratsiyalashgan tadqiqot guruxi (IRT) xalqaro tashkiloti tomonidan Farg'ona vodiysining iqlimi o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Tashkilotning ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysi "Innovatsion platformalar" va bilimlarni boshqarish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari Yer boshqaruvi tashabbusi (CACILM) doirasida muhim rol o'ynaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan tuzilgan Farg'ona vodiysini rivojlantirish dasturi (FVDP) mintaqada nizolarning oldini olishga qaratilgan birinchi loyiha hisoblanadi. Tashkilot, Farg'ona vodiysi 300 km uzunlikdagi yagona geografik tuzilma bo'lib, SSSR parchalanganidan va O'rta Osiyo respublikalari Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston mamlakatlari bo'linib ketganidan buyon millatlararo nizolar yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. Mintaqa muammolarining sababi, suv va yer resurslarining tanqisligi, shuningdek chegaralar, ularning o'zgartirilgan maqomi bilan bog'liq deya xisoblaydi. 1991-yilda davlatlar chegaralari bo'lingan. Aholining zichligi bo'yicha Qirg'iziston aholisining 51 foizi uchta O'sh, Jalolobod, Botken viloyatida joylashgan. Tojikiston aholisining 31 foizi So'g'd viloyatida, O'zbekiston aholisining 27 foizi Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida joylashganligini bayon qiladi.

Xalqaro hamjamiyat mintaqadagi umumiy muammolar va manfaatlarni aniqlash va hal qilish bo'yicha katta tajribaga ega. 2010-yil noyabr oyida Saferworld xalqaro bag'rikenglik jamg'armasi (FTI) va Ilmiy va texnik ziyolilar uyushmasi (ASTI) Qirg'iziston-Tojikiston chegarasi bo'ylab muhokamalar o'tkazdi. Biroq Qirg'izistonning O'sh va Jalolobod viloyatlarida ilk bor 1990-yilda, so'ngra 2010-yilda mahalliy o'zbeklar va qirg'izlar o'rtasida boshlangan shiddatli millatlararo to'qnashuvlar uzoq muddatli deya baho berildi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida barcha sohalarda jadal suratlarida o'sish jarayonlari kuzatilmoqda. Shu jumladan O'zbekistonning asosiy geostrategik maqsadlaridan biri aholi tinchligi va insonlar hayot tarzini yaxshilash masalalaridir. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda O'zbekistonda xududlar kesimida rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Vodiyning geografik joylashuvi, ko'p millatli xudud ekanligi, aholisi zichligi, vodiydagi turli davrlarda bo'lgan notinch vaziyatlar sabab O'zbekiston siyosatida Farg'ona vodiysining ahamiyati katta.

Mintaqadagi vaziyatlarni baholashda statistik ma'lumotlar aniq dalil bo'la bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2009-yilda O'zbekistonda doimiy aholi soni 27533,4 nafarni tashkil etgan bo'lsa, tug'ilish koeffitsenti 1000 aholiga nisbatan 23,4ni tashkil qilgan. Andijonda doimiy aholi soni 2499,9 nafar, tug'ilish koeffitsenti 24,5 ni tashkil qilgan. Namanganda doimiy aholi soni 2217,2 nafar, tug'ilish koeffitsenti 22,9 ni tashkil etgan. Farg'onada doimiy aholi soni 3022,1 nafarni, tug'ilish koeffitsenti 22,6 tashkil etgan. Vodiydagi eng aholi soni ko'p xudud Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Boshqa viloyatlar bilan solishtirsak, Sirdaryo viloyatida 703,4 nafar aholi soni, tug'ilish koeffitsenti 23,6 ni, Navoiy viloyatida aholi soni 839,3 nafar, tug'ilish koeffitsenti 21,6ni tashkil etmoqda. Ushbu viloyatlar aholisi eng kam sonli xududlarga to'g'ri kelmoqda. Eng aholisi ko'p viloyat esa Samarqand viloyati bo'lib, 3061,6 nafar aholi soni, tug'ilish koeffitsenti 24,2ni tashkil etmoqda. Vodiy aholisi soni tug'ilishlar ko'pligi hisobiga yildan-yilga o'sib borayotgani kuzatilmoqda.

2015-yilda O'zbekistonda doimiy aholi soni 31022,5 nafarni tashkil etgan bo'lsa, tug'ilish koeffitsenti 1000 aholiga nisbatan 23,5 ni tashkil etgan. Undan Andijon viloyatida 2857,3 aholi, tug'ilish koeffitsenti 24,1, Namanganda 2554,2 aholi, tug'ilish koeffitsenti 24,0, Farg'onada 3444,9 aholi, tug'ilish koeffitsenti 22,8 ni tashkil etgan.

2022-yilga kelib O'zbekistonning doimiy aholisi 35271,3 nafarni tashkil etgan, tug'ilish koeffitsenti 1000 aholiga nisbatan 26,2ni tashkil etgan. Undan Andijon viloyatida 3253,5 aholi, tug'ilish koeffitsenti 26,3 ni, Namanganda 2931,1 aholi, tug'ilish koeffitsenti 27,8, Farg'onada 3896,4 aholi, tug'ilish koeffitsenti 25,7 ni tashkil etgan. 2022-yilga kelib boshqa viloyatlar bilan solishtirganda Sirdaryoda doimiy aholisi 896,6ni tashkil etadi tug'ilish koeffitsenti 26,3ni tashkil etadi. Sirdaryo O'zbekistondagi eng aholi kam sonli xudud, Samarqand esa aholisi eng ko'p xudud

PEDAGOGIKA

hisoblanadi Samarqandda doimiy aholi soni 4118,2 nafarni tashkil etsa tug'ilish koeffitsenti 27,4ni tashkil etmoqda. Vodiy aholisi zichligi bo'yicha avvalgi paragraflarda to'liq ma'lumotlar berilgan. Vodiy aholisi zij joylashganli bo'yicha O'zbekistonda hususan, markaziy Osiyoda ham birinchida turganligi aniqlandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish oilaga, ayol, farzand salomatligiga e'tiborni yanada kuchaytirdi, bu mustaqillik davrida aholining jinsiy mutanosibligi va o'rtacha umr ko'rish davrining ko'tarilishi bilan izohlanadi. Aholini demografik o'sishi nikohlarning ortib borishiga olib kelmoqda. Hususan mustaqillik yillarida, 2009-yildan keyingi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda hususan Farg'ona vodiysida nikohlar ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda. 2009-yilda O'zbekistonda jami tuzilgan nikohlar soni 272083 tani, nikohdan ajralishlar 16901 tani tashkil etgan. Andijon viloyatida 29471ta nikox tuzilgan, 919 ta ajrimlar qayd etilgan. Namangan viloyatida 21130 ta nikox tuzilgan, 1757 ta ajrimlar qayd etilgan. Farg'ona viloyatida 32520 ta nikox tuzilgan, 1360 ta ajrimlar qayd etilgan.

2015-yilga kelib O'zbekistonda 287582 ta nikohlar qayd etilgan bo'lsa, 29647 ajrimlar qayd etilgan. Undan Andijon viloyatida 28311ta nikox tuzilgan 2854 ajrimlar, Namangan viloyatida 24695ta nikoh tuzilgan, 2113 ajrimlar qayd etilgan. Farg'ona viloyatida 30860 ta nikohlar qayd etilgan, 3109 ta ajrimlar bo'lgan.

2022-yilda O'zbekistonda jami 296689 ta nikohlar tuzilgan 48733 ta ajrimlar qayd etilgan. Undan Andijon viloyatida 25847ta nikox tuzilgan, 5013ajrimlar qayd etilgan. Namangan viloyatida 23454ta nikox qayd etilgan, 4389 ajrimlar, Farg'ona viloyatida 32052 ta nikohlar qayd etilgan, 5451 ajrimlar qayd etilgan. Mintaqadagi aholi zichligi, demografik o'sishning tezligi sabab oilalarda turur joyga, mehnat resurslariga, ta'lim, sog'lik masalalariga extiyojning ortishiga sabab bo'lmoqda. Natijada oila tizimiga ta'sir etuvchi bir qator destruktiv omillar yuzaga kelmoqda. Farg'ona vodiysi bo'yicha berilgan bu ma'lumotlardan ayonki, mintaqa demografik, nikoh tuzilishi, oilalar sonining ortib borishi, ajrimlar sog'liqni saqlash bo'yicha O'zbekistonning eng murakkab mintaqalaridan bo'lib, bu xududda ko'plab ijtimoiy muammolar vujudga kelgan.

Xududlar kesimida solishtirsak Farg'ona viloyatida nikox tuzuvchilar soni vodiyning boshqa viloyatlariga nisbatan ko'p tuzilayotganligi ayon bo'ladi. Demografik o'sishning tezligi mintaqada asosan o'zbeklarning ko'payishi, mustaqillik yillarida vodiyning asosan katta qismini o'zbeklar tashkil etishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'zbek xalqining o'ziga hos milliy mental hususiyatlari yanada takomillashib borishiga sabab bo'lmoqda. Lekin shu bilan birga mintaqada oila tizimida bir qator muammolarni ham yuzaga kelishi kuzatilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha O'zbekistonda olib borilayotgan siyosiy islohotlar muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonining Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha to'rtinchi yo'nalishida "oilalarning salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirildi". Natijada yildan yilga ayollar va bolalar o'limining kamayishi kuzatilmoqda.

Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotiga asosan, 2010-yilda onalar o'limi koeffitsenti O'zbekistonda 100000 tirik tug'ilganga nisbatan 21.0 ni tashkil etmoqda. Andijonda 18,3, Namanganda 21,7ni, Farg'onada 17.0ni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatgich 2015 yilga kelib sezilarli tarzda kamaygan. Ushbu yilda onalar o'limi koeffitsenti O'zbekistonda 100000 tirik tug'ilganga nisbatan 18,9 ni tashkil etsa, Andijonda 12,9 ni, Namanganda 8,1, Farg'onada 12,6ni tashkil etmoqda. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar, ona va bola salomatligi uchun yaratilayotgan sharoitlar sabab, tibbiyot sohasidagi zamonaviy davolash, profilaktik ishlarni olib borilayotganligi sabab Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida onalar o'limi keskin qisqargani aniqlanmoqda. 2022-yilga kelib onalar o'limi soni yanada keskin pastlagani kuzatilmoqda. Hususan, O'zbekistonda onalar o'limi 100 000 tirik tug'ilganga nisbatan 13.9 ni tashkil etmoqda. Andijonda, 13,9, Namanganda 8,5, Farg'onada 15,8ni tashkil etmoqda.

Stastistik ma'lumotlarga ko'ra go'daklar o'limi ham qayd etilgan. O'zbekistonda 2009-yil ma'lumotlariga ko'ra go'daklar o'limi koeffitsenti 11,7 tashkil etmoqda. Andijonda, 10,4,

Namanganda 11,8, Farg'onada 15.0ni tashkil etgan. 2015-yilda O'zbekistonda 11,4, Andijonda 14,2, Namanganda 12,2, Farg'onada 9,1ni tashkil etmoqda. 2022-yilda O'zbekistonda 8.7, Andijonda 8.8, Namanganda 7.7, Farg'onada 6.2 ni tashkil etmoqda.

2022-yil ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda bolalar o'limi koeffitsenti 11.4 ni tashkil etmoqda, Andijonda 12.2, Namanganda 9.1, Farg'onada 8.0 ni tashkil etmoqda. Bundan tashqari erta nikoh, qizlarni yosh turmushga uzatish, 20 yoshgacha ayollardan tug'ilgan bolalar, o'smir yoshda tug'ishlar ham kuzatilmoqda. Vodiyning ayrim tuman va shaharlaridagi ushbu dolzarb muammoga jiddiy e'tibor berilmasligi oqibatida oilalardagi ajrimlar, bolalar o'limi, onalar o'limi kabi holatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Davlat boshqaruvida aholi turmush-tarzi yaxshilash borasidagi islohotlari, ushbu davlat tomonidan olib borilayotgan demokratik jarayonlar izchilligini ifodalaydi. Hususan O'zbekiston geostrategiyasidagi asosiy masalalardan biri aholi yashash sharoitlarini yaxshilash, zamon talablariga javob bera oladigan munosib hayot tarzini yaratish maqsad qilib olingan. Vodiya joylashagan uch viloyatning Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarining aholisi O'zbekistonning uchdan bir qismini tashkil etishi hisobga olinganda, vodiydagi aholi tug'ilishi, oila masalalari, aholining turmush sharoitlari, o'lim va shu kabi bir qator ijtimoiy masalalar O'zbekistonning rivojlanish maqsadida olib borilayotgan islohotlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda olib borilayotgan siyosiy islohotlarda Farg'ona vodiysi muhim ahamiyatga ega.

Farg'ona vodiysi timsolida oila qadriyatlarini o'zbek xalqining madaniy va ma'naviy urf-odatlarining qadimdan hozirgacha shakllanib kelgan muhim segmenti milliy munosabatlar izchilligini ifodalaydi. Farg'ona vodiysining o'ziga hos geografiyasi, iqlimi, uzoq va boy tarixi, aholisining o'ziga xos milliy mental hususiyatlari kabi jixatlari, bundan tashqari mintaqaning inson yashashi uchun barcha qulayliklarga ega ekanligi muhim masala bo'lib kelgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.cgiar.org/>
2. <https://www.thegef.org/projects-operations/projects/2504>
3. <https://www.undp.org/home>
4. <https://www.saferworld-global.org/>
5. Yusupova S.N. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning millatlararo munosabatlarga ta'siri (1991-2016 yillar, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari misolida) t.f.f.d.(PhD) ilm.dar.olish uchun yozilgan dissertatsiya. Andijon-2019. 147-b
6. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", No. PF-4947 dated 02.07.2017)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/>